



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI REKTORINING
BUYRUG‘I

26 mart 2026 yil.

01-03-13-son

**Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar
vazirligining 2026-yil 23-fevraldagi
71-sonli buyrug‘i ijrosi to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining korrupsiyaga qarshi kurashish, komplayens nazoratini takomillashtirish va raqamlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda kelgusidagi rejalar yuzasidan 2025-yil 10-dekabr kuni o‘tkazilgan taqdimotda berilgan topshiriqlar bayonining 17-bandi ijrosini ta‘minlash, shuningdek, oliy ta‘lim tizimida tahsil olayotgan yoshlarda iqtisodiy va moliyaviy savodxonlikni oshirish, ularning nazariy bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirish va Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 23-fevraldagi 71-sonli buyrug‘i ijrosini ta‘minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. Respublika oliy ta‘lim tashkilotlarining iqtidorli yoshlari o‘rtasida **moliyaviy savodxonlik bo‘yicha turkum fan olimpiadalari** (keyingi o‘rinlarda - Olimpiadalar) ta‘sis etilganligi ko‘rsatib o‘tilsin.

2. Olimpiadalar quyidagi fanlar bo‘yicha o‘tkazilishi belgilansin:

- umumiy iqtisodiyot nazariyasi ("A" kategoriya - iqtisodiyot yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida, "B" kategoriya - iqtisodiyotdan tashqari yo‘nalishlarda tahsil olayotgan talabalar o‘rtasida);

- moliya;

- soliq;

- bank ishi;

- iqtisodiy statistika va ma‘lumotlar tahlili.

3. Olimpiadalar har yili aprel oyida o'tkaziladi hamda respublika bosqichi **Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti** bazasida tashkil etiladi.

4. **Andijon davlat chet tillari instituti O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i (K.Karimov) va fakultet dekanlari (J.Egamberdiyev, M.Pazilov, A.Ataboyev):**

4.1 Har yili 1-aprel sanasiga qadar Olimpiadalarning birinchi bosqichini o'tkazsin va natijalari yuzasidan Tashkiliy qo'mitaga belgilangan tartibda hisobot taqdim etsin;

4.2. Talabalarni Olimpiadalarga tizimli va maqsadli tayyorlash choralarni ko'rsin;

5. **Bosh hisobchi (N.Bobojonov)** olimpiadalarda g'olib bo'lgan talabalar va ularning ilmiy rahbarlarini belgilangan tartibda rag'batlantirsin;

6. **Axborot siyosati masalalari bo'yicha rektor maslaxatchi (A.Yunusov)** olimpiadalar bilan bog'liq jarayonlarni ommaviy axborot vositalari hamda rasmiy veb-saytlar orqali keng yoritib borsin.

7. Mazkur buyruq ijrosining nazorati **O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i K.Karimov** zimmasiga yuklatilsin.

Rektor



D.A.Rustamov